

BAYRAMINGIZ MUBORAK AZIZ AYOLLAR!



Seni ta'rifingni bitmagan kim bor,
Sen uchun yozilgan misra maftunkor
Sen uchun dunyoga keldi shu ash'or
Bayraming muborak, azizim ayol!

Sevinchdan yuzlaring nurlarga to'lsin
Bir shoir tilagi dillarga cho'msin
Har kuning hamisha bayramdek bo'lsin
Bayraming muborak, muqaddas ayol.

Tafti quyoshdan iliq va mehri cheksiz ummon bolgan, tabiatning betakror xilqati, uyimiz farishtasi, qalbimiz malikasi, munis va motabar ayollar! Sizlar bor xonadonimiz fayzli, sizlar bor ko'nglimiz koshona va toleimiz porloq!

Aziz ayollar, sizlarni 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan samimiy tabriklaymiz! Hamisha hurmat va e'zozga sazovor bolib yashang, sizni also go`zallik tark etmasin! Oilangizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilaymiz!